



SPECIFIC ASPECTS OF THE LEGAL BASES FOR FIGHTING CORRUPTION IN THE SYSTEM OF PROSECUTOR'S OFFICES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Shukhrat Tashkhujaev

Master's student

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: shukhrattoshxojaev66@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: legal basis, normative-legal acts, law acts, legislative acts, local acts, corruption, conflict of interest, Special Commission, personnel rotation, compliance-control, professional etiquette.

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: In this article, a formal legal analysis of the legal bases for fighting corruption in the system of prosecutor's offices of the Republic of Uzbekistan was carried out, as a result of this analysis, author's definitions and specific aspects of the concept of legal bases for combating corruption in the system of prosecutor's offices of the Republic of Uzbekistan were developed and advanced.

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PROKURATURA ORGANLARI TİZİMİDA KORRUPSIYAGA QARŞI KURASHISH HUQUQIY ASOSLARINING O'ZİGA XOS JİHATLARI

Shuxrat Tashxujaev

magistratura tınglovchisi

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: shuxrattoshxojaev66@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquqiy asos, normativ-huquqiy hujjat, qonun hujjatlari, qonunosti hujjatlari, lokal hujjatlar, korrupsiya, manfaatlar to'qnashushi, maxsus komissiya, xodimlar rotatsiyasi, komplaens-nazorat, kasb odobnomasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslarining o'ziga xos jihatlari formal-yuridik tahlili amalga oshirilib, ushbu tahlil natijasida O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslari tushunchasiga mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi hamda ushbu tushunchaning o'ziga xos jihatlari yoritib o'tildi.

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВЫХ ОСНОВ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ В СИСТЕМЕ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Шухрат Таихуджаев

студент магистратуры

Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

E-mail: shukhrattoshxojaev66@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правовая база, нормативно-правовые акты, законодательные акты, подзаконные акты, локальные акты, коррупция, конфликт интересов, Специальная комиссия, ротация персонала, комплаенс и надзор, профессиональный этикет.

Аннотация: В данной статье был проведен формально-правовой анализ правовых основ противодействия коррупции в системе органов прокуратуры Республики Узбекистан, в результате которого были разработаны и усовершенствованы авторские определения и специфические аспекты понятия правовых основ противодействия коррупции в системе органов прокуратуры Республики Узбекистан.

Kirish. Bizga ma'lumki, mamlakatda qonun va adolat ustuvorligini, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash hamda korrupsiyaga qarshi kurash asosiy me'zon bo'lgan prokuratura organlari tizimida korrupsiya jinoyatlarini sodir etish orqali prokuror maqomiga dog' tushiradigan, nopol, zimmasidagi vazifa va vakolatlarni suiiste'mol qiladigan prokuratura xodimlariga nisbatan keskin choralar ko'riliishi hozirgi davr talabidir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "O'tgan ikki yilda 5 mingga yaqin mansabdar korrupsiyaga doir jinoyatlar bo'yicha javobgarlikka tortildi. Lekin, ochiq aytish kerak, bu – masalaning sababi bilan emas, oqibati bilan kurashish,...endi amaliy ishlarni kuchaytirish kerak, sun'iy monopoliyaga, yopiq sxemalarga, umuman korrupsiyaga imkon yaratadigan barcha bo'shliqlarga barham beriladi", – deb fikr bildirgan edilar. [1] Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2019-2020-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi chora-tadbirlarining 17-bandida 2019-yil 1-dekabrgacha "Prokuratura organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish, shu jumladan, prokuratura organlari va muassasalarida xizmat qilish uchun institutsional mexanizmlarni mustahkamlash, kadrlarni shaffof tanlovlardan asosida saralab olishning mutlaqo yangi mexanizmini joriy etish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va bartaraf qilish lozimligi belgilangan. [2] Bu esa o'z-o'zidan O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslarining o'ziga xos jihatlari tahlilini olib borish dolzarb masala ekanligini ko'rsatib beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslarining o‘ziga xos jihatlari tahliliga bog‘liq masalalar B.Axrorov, S.A.Boydedayev, A.Burxanov, T.U.Safarov, Z.Ibragimov, B.Ismoilov, A.Atajanov, S.Mamanov, N.Salayev, B.Xidoyatov, G.Tulaganova, S.Niyozova, B.Aliyev, A.Muxtarov, T.Norov, F.Maxmudovlar tomonidan, MDH davlatlari miqyosida A.V.Vorobyov, Y.N.Rumyanseva, A.N.Skorobogatova, Chan Xiu Txan, S.S.Tereshuk, T.A.Nesterova, V.V.Strelnikov, V.V.Kazakovlar tomonidan, xorijiy mamlakatlarda esa Julie Kathleen Faller, Ahmet Turer (AQSH), Yee-ling Yiu (Vyetnam), M. Qizilbash, Oliver Cover (Buyuk Britaniya), Kam-bill Wong (Yaponiya), Ying Shang (Singapur), Gang Xu (Xitoy), Yunbo Sun (Kanada), Yinan Li (Shvetsiya) tomonidan yetarlicha hamda atroflicha o‘rganilgan. Shu bilan birgalikda, ushbu maqolani tayyorlash hamda ilmiy jihatdan tahlil qilishda kuzatish va tahlil, normativ-hujjatlar tahlili, holat o‘rganish (case study), teoretik va nazariy tahlil, komparativ (solishtirma) tahlil, induksiya va deduksiya, interdisiplinar yondashuv kabi huquqshunoslik metodlaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Bizga ma’lumki, “huquqiy asos” hamda “huquq manbasi va huquq shakli” bir ma’noni anglatadigan tushunchalar hisoblanadi. Xususan, xorijlik huquqshunos olim G.Kelzenning fikriga ko‘ra, huquq manbasi tushunchasi odob-axloqqa oid me’yorlar, siyosiy prinsiplar, huquqiy doktrinalar, huquqshunos mutaxassislar fikrlarini anglatadi. [3] Ya’ni, ushbu ta’rif juda ham keng mazmundagi ta’rif hisoblanadi. Lekin, yuqorida fikrdan farqli ravishda milliy huquqshunos olim Sh.A.Saydullayevning ta’kidalshicha, huquqning manbasi deganda umumiyl ma’noda huquqni ifoda etish shakli tushuniladi. Huquqiy hodisa sifatida huquq manbasini uch xil ma’noda tushunish mumkin: moddiy ma’noda – bu jamiyatdagi mulkchilik shakllari, moddiy shart-sharoitlar, jamiyat a’zolarining qiziqishalari va manfaatlari; mafkuraviy ma’noda – bu turli huquqiy mafkura va ta’limotlar, huquqiy ong; maxsus yuridik ma’noda – huquqning shakllari. [4] Sh.A.Saydullayevning fikriga qo‘shilgan holda, huquqiy asos – maxsus yuridik ma’nodagi huquq shakli hisoblanadi.

Demak, O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslari – O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid munosabatlarni tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlardir.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslari tushunchasini ikki xil ma’noda, ya’ni tor va keng ma’nolarda tushunish mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonun 6-moddasidan [5] kelib chiqqan holda, keng ma’noda O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi

kurashish huquqiy asoslari – O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini tartibga soladigan qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda idoralarning qarorlaridir.

Tor ma’noda O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslari – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini tartibga soladigan lokal normativ-huquqiy hujjatlardir.

Bizning fikrimizcha, prokuratura organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslarini keng ma’noda tushunishning o‘ziga xos jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi tushunchalarining ta’rifi qonun darajasida belgilanganligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonun [6] 3-moddasida “korrupsiya” hamda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonun [7] 3-moddasida “manfaatlar to‘qnashuvi” tushunchalariga ta’rif berilgan;

- Ichki xavfsizlikni ta’minalash boshqarmasi, ichki xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha prokuror katta yordamchilari, shaxsiy xavfsizlik tarmoqlari, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) O‘zbekiston Respublikasi prokururasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi va manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha tuzilmalar ekanligi qonun darajasida belgilanganligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-son Qonun [8] 46-moddasi ikkinchi qismida hamda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi

O‘RQ-931-son Qonun [7] 3-moddasida Ichki xavfsizlikni ta’minalash boshqarmasi, ichki xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha prokuror katta yordamchilari, shaxsiy xavfsizlik tarmoqlari, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) O‘zbekiston Respublikasi prokururasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi va manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha tuzilmalar ekanligi ko‘rsatilgan;

- Ichki xavfsizlikni ta’minalash boshqarmasi, ichki xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha prokuror katta yordamchilari, shaxsiy xavfsizlik tarmoqlari, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) shtat birliklari qonunosti hujjatlар darajasida belgilanganligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PF-5019-son Farmoni [9] bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurururasining tashkiliy-shtat tuzilmasiga binoan, 9 nafar shtat birligidan iborat Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi, ushu Farmon bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tashkiliy-shtat tuzilmasiga asosan, 3 nafar shtat birligidan iborat Shaxsiy xavfsizlik

bo‘limi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-maydagi PQ-3016-son qarori [10] bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurururasи huzuridagi Majburiy ijro byurosi markaziy apparati tashkiliy-shtat tuzilmasiga asosan, 5 nafar shtat birligidan iborat Ichki xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi tashkil etilgan va faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-maydagi PQ-3016-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurururasи huzuridagi Majburiy ijro byurosi to‘g‘risida” nizom 10-bandida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurururasи huzuridagi Majburiy ijro byurosi organlarida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) joriy etilishi va ishlashi ta’minlanishi belgilab qo‘yilgan . E’tiborli jihat, korrupsiyaga qarshi nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) faqatgina prokuratura organlari tizimida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurururasи huzuridagi Majburiy ijro byurosi organlarida tashkil qilingan;

• prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining asosiy vazifalari qonunosti hujjatlar darajasida belgilanganligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagи “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘sishmcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son Qarori [11] 3-bandi ikkinchi xatboshisiga asosan, prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining asosiy vazifalari korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rish hisoblanadi;

• prokuratura organlari tizimida poraxo‘rlik va boshqa suiste’molchiliklarning oldini olish va ularga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida xodimlarning rotatsiyasi o‘tkazilishi qonunosti hujjatlar darajasida belgilanganligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-maydagi PF-5446-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurururasи huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentida xizmatni o‘tash to‘g‘risida”gi Nizom [12] 14-bandiga asosan, poraxo‘rlik va boshqa suiste’molchiliklarning oldini olish va ularga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida xodimlarning lavozimlarini o‘zgartirish (rotatsiya) o‘tkazilishi, xodimlar rotatsiyasi, qoida tariqasida, egallab turgan lavozimida uch yil ishlaganidan keyin amalga oshirilishi, xodimlarni rotatsiya qilish tartibi Bosh prokuror tomonidan belgilanishi ko‘rsatib o‘tilgan;

• prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy nazoratni amalga oshiradigan bo‘linmalar faoliyatini tanqidiy o‘rganish Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha maxsus komissiya tomonidan amalga oshirilishi qonunosti hujjatlar darajasida belgilanganligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son

Farmoni [13] 11-bandiga asosan, Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari komissiya raisi hisoblanadigan maxsus komissiya korrupsiyaga va boshqa jinoyatlarga qarshi tizimli kurashish sohasida huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari, shu jumladan ichki idoraviy nazoratni amalga oshiradigan bo'linmalar faoliyatini tanqidiy o'rganish vazifasini amalgga oshiradi;

- prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga oid xatti-harakat sodir etish xizmat vazifalarini bir marta qo'pol ravishda buzish deb hisoblanishi qonunosti hujjatlar darajasida belgilanganligi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 12-sentabrdagi "PQ-2036-sон Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari va muassasalarida xizmatni o'tash to'g'risida"gi nizomga asosan, jinoiy jazolanadigan qilmish yoki prokuratura organlari xodimiga nomunosib nojo'ya xatti-harakatlar sodir etish xizmat vazifalarini bir marta qo'pol ravishda buzish hisoblanadi va xizmatdan bo'shatish uchun asos hisoblanadi. [14]

Bizning fikrimizcha, prokuratura organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslarini tor ma'noda tushunishning o'ziga xos jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- Ichki xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi tashkil etilishi va qayta tashkil etilishiga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyrug'i bilan tartibga solinishi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashda prokuratura organlarining rolini kuchaytirish to'g'risida"gi PF-5019-sон Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 25-iyuldagagi "Tashkiliy-shtat tuzilmalarini tasdiqlash va Bosh prokuratura tarkibiy tarmoqlarining tartib raqamlarini belgilash to'g'risida"gi 136-sон buyrug'i qabul qilinib, Ichki xavfsizlikni ta'minlash inspeksiyasi "Ichki xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi" deb qayta nomlandi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi to'g'risida"gi nizomga binoan, ichki xavfsizlikni ta'minlash tarmoqlari "Shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash tarmoqlari" sifatida qayta tashkil etilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari, Bosh prokuratura huzuridagi Departament va Majburiy ijro byurosi hududiy boshqarmalarining shaxsiy xavfsizlik tarmoqlari bo'yicha xodimlarining faoliyat yuritishlari belgilandi; [14]

- Ichki xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi maqomiga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyrug'i bilan tartibga solinishi. Xususan, prokuratura organlari tizimida ichki xavfsizlikni ta'minlash tarmoqlari faoliyati bevosita O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 6-noyabrdagi 157-sон buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasining ichki xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi to'g'risida"gi

nizom asosida yo‘lga qo‘yiladi va xodimlar o‘rtasida xizmat mavqeyini suiiste’mol qilish, korrupsiya kabi salbiy illatlarga yo‘l qo‘ymaslik va nojo‘ya xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish ularning asosiy vazifalari doirasiga kiradi; [14]

- Prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi va manfaatlar to‘qnashuviga oid munosabatlarni tartibga soladigan kasb odobnomasi O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyrug‘i bilan tartibga solinishi. Xususan, prokuratura organlarining xodimlari xizmatni o‘tash davrida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlanadigan prokuratura organlarining kasb odobnomasiga rioya qilishlari shartligi va kasb odobnomasiga rioya qilmagan xodimlarga intizomiy va boshqa jazo choralar qo‘llanilishi belgilangan. [14]

Xulosa.

Prokuratura organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish qonun hujjatlari darajasida belgilangan ijtimoiy munosabatlar quyidagilardir:

- korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi tushunchalarining ta’rifiga oid munosabatlar;
- Ichki xavfsizlikni ta’minalash boshqarmasi, ichki xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha prokuror katta yordamchilari, shaxsiy xavfsizlik tarmoqlari, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) O‘zbekiston Respublikasi prokururasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi va manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha tuzilmalar ekanligiga oid munosabatlar.

Prokuratura organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish qonunosti hujjatlari darajasida belgilangan ijtimoiy munosabatlar quyidagilardir:

- Ichki xavfsizlikni ta’minalash boshqarmasi, ichki xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha prokuror katta yordamchilari, shaxsiy xavfsizlik tarmoqlari, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) shtat birliklariga oid munosabatlar;

- prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining asosiy vazifalariga oid munosabatlar;

- prokuratura organlari tizimida poraxo‘rlik va boshqa suiiste’molchiliklarning oldini olish va ularga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida xodimlarning rotatsiyasi o‘tkazilishiga oid munosabatlar;

- prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy nazoratni amalga oshiradigan bo‘linmalar faoliyatini Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari komissiya raisi hisoblanadigan maxsus komissiya tomonidan tanqidiy o‘rganishga oid munosabatlar;

- prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga oid xatti-harakat sodir etish xizmat vazifalarini bir marta qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanishiga oid munosabatlar.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori buyruqlari bilan tartibga solinadigan prokuratura organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ijtimoiy munosabatlar quyidagilardir:

- Ichki xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi tashkil etilishi va qayta tashkil etilishiga oid munosabatlar;
- Ichki xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi maqomiga oid munosabatlar;
- prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi va manfaatlar to‘qnashuviga oid munosabatlarni tartibga soladigan kasb odobnomasiga oid munosabatlar.

Shuningdek, prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslariga oid quyidagi tushunchalarga mualliflik ta’riflari ilgari suriladi:

O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslari – O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid munosabatlarni tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlardir.

Keng ma’noda - O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslari – O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini tartibga soladigan qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda idoralarning qarorlaridir.

Tor ma’noda - O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslari – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini tartibga soladigan lokal normativ-huquqiy hujjatlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2022-yil 20-dekabr, <https://president.uz/oz/lists/view/5774>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi, 2023-yil 27-noyabr, <https://www.lex.uz/uz/docs/-6676585>.
3. Kelsen H. General theory of law and state. The Lawbook Exchange, Ltd., 2009. – P.131.
4. Sh.A.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. – Toshkent: 2024. – 135-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-slon Qonun, 2021-yil 20-aprel, <https://lex.uz/docs/-5378966>.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-slon Qonun, 2017-yil 3-yanvar, <https://lex.uz/docs/-3088008#-3088317>.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-slon Qonun, 2024-yil 5-iyun, <https://lex.uz/uz/docs/-6952742>.

8. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-sон Qонун, 2001-yil 29-avgust, <https://lex.uz/docs/-106197>.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalgaloshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta’minlashda prokuratura organlarining rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi PF-5019-sон Farmoni, 2017-yil 18-aprel, <https://lex.uz/acts/-3177796>.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3016-sон qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi to‘g‘risida” nizom, 2017-yil 30-may, <https://lex.uz/docs/-3220004>.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-sон Qarori, 2021-yil 6-iyul, <https://lex.uz/ru/docs/-5495533>.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5446-sон Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentida xizmatni o‘tash to‘g‘risida”gi Nizom, 2018-yil 23-may, <https://lex.uz/ru/docs/-3743214>.

13. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sон Farmoni, 2019-yil 27-may, <https://lex.uz/en/docs/-4355387#-4355821>.

14. O‘zbekiston Respublikasining Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga sharh. –T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2024. – 360 bet.